



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAKLLANISHI SHAROITIDA ASOSIY FONDLARNI BAHOLASH USLUBIYOTINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rixsimbayev Odiljon Kabildjonovich
i.f.n., dotsent

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi raqamli iqtisodiyot shakllanishi sharoitida asosiy fondlarni baholash uslubiyotini o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilib u bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xarajat modeli, qayta baholash modeli, adolatli qiymat, sinergetik qiymat, bozor qiymati, tugatish qiymati.

Abstract. In this thesis, in the conditions of the formation of the digital economy, the specific features of the methodology of the evaluation of the main funds are researched and suggestions and recommendations are given.

Keywords: cost model, revaluation model, fair value, synergistic value, market value, liquidation value.

Аннотация. В данной диссертационной работе в условиях становления цифровой экономики исследованы особенности методологии оценки основных фондов, даны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: модель себестоимости, модель переоценки, справедливая стоимость, синергетическая стоимость, рыночная стоимость, ликвидационная стоимость.

Kirish.

So'nggi yillarda jahonda buxgalteriya hisob tizimini xalqaro tizim bilan uyg'unlashtirish yo'liga kirishdi. Mamlakatimizning ham jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining o'sib bormoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish hozirgi kunda asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda amaliyotda aktivlarning baholashning turli xil usullaridan foydalanib kelinmoqda va aktivlarni baholashni universallashtirish bo'yicha yo'riqnomani ishlab chiqish zarurligiga olib keladi va bu orqali adolatli qiymatni aniqlash imkonini tug'iladi.

16-somli buxgalteriya hisob xalqaro standartlarida aktivlarni baholash bo'yicha quyidagicha to'xtalib o'tilgan:

“• Xarajat modeli. Aktiv to'plangan amortizatsiya va qadrsizlanishni chegirib tashlagan holda tannarx bo'yicha hisobga olinadi.

• Qayta baholash modeli. Aktiv qayta baholangan qiymat bo'yicha aks ettiriladi, bu uning qayta baholash sanasidagi adolatli qiymati bo'lib, agar adolatli qiymat ishonchli tarzda o'lchanishi mumkin bo'lsa, keyingi eskirish va qadrsizlanishlarni hisobga olmaganda.

Qayta baholash modeli. Qayta baholash modeliga ko'ra, aktivning balans qiymati balans sanasidagi adolatli qiymatidan sezilarli darajada farq qilmasligi uchun qayta baholash muntazam ravishda amalga oshirilishi kerak.

Agar ob'ekt qayta baholansa, ushbu aktiv tegishli bo'lgan barcha aktivlar sinfi qayta baholanishi kerak.

Qayta baholangan aktivlar xarajat modelidagi kabi amortizatsiya qilinadi.

Agar qayta baholash qiymatning oshishiga olib keladigan bo'lsa, u boshqa to'liq daromad hisobiga yozilishi va "qayta baholashdan ortiqcha" sarlavhasi ostida o'z kapitalida to'planishi kerak, agar u ilgari xarajat sifatida tan olingan o'sha aktivni qayta baholashdan tushgan pasayishning bekor qilinishini bildirmasa. agar u foyda yoki zararda tan olinishi kerak.

Qayta baholash natijasida yuzaga kelgan pasayish, xuddi shu aktivga tegishli qayta baholashdan tushgan foyda hisobiga ilgari kiritilgan har qanday summadan oshadigan darajada xarajat sifatida tan olinishi kerak.

Qayta baholangan aktivlar chiqarilganda, qayta baholashdan qolgan har qanday ortiqcha to'g'ridan-to'g'ri taqsimlanmagan foydaga o'tkazilishi yoki qayta baholash bo'yicha profitsit sarlavhasi ostida o'z kapitalida qoldirilishi mumkin. Taqsimlanmagan foydaga o'tkazish foyda yoki zarar orqali amalga oshirilmasligi kerak.”¹

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 3239-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standarti”da baholash bazasi va qiymat turlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

Standartga muvofiq baholash bazalari quyidagilarga ajratilgan:

bozor qiymati;

bozor ijara haqi;

adolatli qiymat;

investitsiya qiymati;

sinergetik qiymat;

tugatish qiymati;

yo‘q qilish qiymati;

almashtirishning qoldiq qiymati;

takror ishlab chiqarish qoldiq qiymati;

maxsus qiymat;

sug‘urtaga oid qiymat;

soliqqa oid qiymat abi turlarga ajratilgan.

Mazkur standartning 4-bobida adolatli qiymatga quyidagicha ta’rif berilgan ya’ni “Adolatli qiymat deganda aktiv, aniq belgilangan va barcha zarur axborotga ega bo‘lgan manfaatdor taraflar o‘rtasida ayriboshlanganda (mulk sotilganda yoki qarzdorlik hisobdan chiqarilganda) ushbu taraflarning manfaatlarini aks ettiradigan, hisoblab chiqiladigan-baholanadigan pul miqdori tushuniladi.

Adolatli qiymatni aniqlash qat‘iy belgilangan taraflar o‘rtasida ushbu taraflarning har biri

¹ 16-sonli “Asosiy vositalar hisobi” nomli moliyaviy hisobning xalqaro standarti

bitimdan ko‘radigan afzalliklari yoki salbiy tomonlarini hisobga olganda adolatli bo‘ladigan xuddi shunday pul miqdorini baholashni talab qiladi.

Bunda, bozor qiymatini aniqlashda, qoida tariqasida, umumiy hisobda bozor ishtirokchilariga xos bo‘lmaydigan yoki ular foydalana olmaydigan barcha afzalliklar yoxud salbiy holatlar hisobga olinmaydi.

Adolatli qiymat bozor qiymatiga qaraganda ancha kengroq tushuncha bo‘lib, garchi taraflar o‘rtasidagi bitimda adolatli bo‘lgan baho bozorda olish mumkin bo‘lgan bahoga teng bo‘lsa-da, shunga qaramay, shunday vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinki, adolatli qiymatni aniqlashda bozor qiymatini aniqlashda e‘tiborga olinmaydigan jihatlar, masalan, moddiy manfaatdorlikni uyg‘unlashtirganda yuzaga keladigan sinergetik qiymatning ba‘zi bir jihatlari e‘tiborga olinishi zarur bo‘ladi”².

Shuningdek, 13-sonli moliyaviy hisobning xalqaro standarti aynan aktivlarning haqqoniy qiymatni baholash to‘g‘risida bo‘lib, mazkur standartda haqqoniy qiymat to‘g‘risida quyidagicha to‘xtalib o‘tilgan ya‘ni,

“Adolatli qiymat - bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo‘lgan yoki majburiyatni o‘tkazishda to‘lanishi mumkin bo‘lgan narxdir”³.

Taniqli rus olimasi M.B.Uxojoyeva o‘z asarlarida adolatli qiymat to‘g‘risida quyidagi ta‘kidlagan: “Adolatli baholash tamoyilining asosiy maqsadi va vazifasi bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan ma‘lumotlarning assimetriyasi tufayli tashqi foydalanuvchilar va korxonalar o‘rtasidagi baholash ob‘ekti sifatidagi to‘siqlarni yo‘q qilishdir. Moliyaviy hisobot sifatini oshirishning eng muhim jihati bu asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy vositalar, mehnat shartnomalari va ijara shartnomalarini hisobga olishda adolatli qiymatni joriy etish hisoblanadi. Aktivlarning haqqoniy bahosini topish bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi. Buning sababi, professional baholovchilar tomonidan aktivlarning haqqoniy bahosini aniqlashda muayyan taxminlarga asoslangan yondashuvlarni qo‘llaniladi. Bundan tashqari, bozor ob‘yektning adolatli qiymatini aniqlashda yagona to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ekanligi haqidagi ta‘kid ilmiy asoslanmagan. Ba‘zi hollarda u baholanayotgan aktivning haqiqiy qiymatining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan omillar ta‘siriga duchor bo‘ladi. Quyidagi hollarda aktivlarning adolatli qiymatni aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanmaydi:

1) agar korxonalar ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalarga ega bo‘lsada, biroq korxonalar tomonidan hech qanday sabablarsiz ushbu asosiy vositalarni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun yaroqsiz, ahamiyatsiz deb baholansa;

2) agar ishlab chiqarish jarayonining rejaları o‘zgarishi natijasida ishlab chiqarishdan bo‘shatilgan asosiy vositalarni korxonalar tomonidan sotish niyati bo‘lmasa;

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilishimiz mumkin bo‘ladiki korxonalarda asosiy fondlarni hisobini to‘g‘ri tashkil etish va uni haqqoniy bahoda yuritish orqali investorlar va kreditorlarga kerakli qarorlarni qabul qilishda ko‘maklashish, buxgalteriya hisobini asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda asosiy fondlarni baholash uslubiyotini takomillashtirish juda muhim hisoblanadi. Shu sababli mazkur tezisdagi raqamli iqtisodiyotdan kelib chiqqan holda asosiy fondlarni baholash masalarni avtomatlashtirish va shu orqali inson omilini kamaytirish dolzarb hisoblanadi.

² O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standarti 2020-yil

³ 13-sonli “Adolatli qiymatni baholash” nomli moliyaviy hisobning xalqaro standarti

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining yagona milliy baholash standarti 2020-yil
2. 16-sonli “Asosiy vositalar hisobi” nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari
3. 13-sonli “Adolatli qiymatni baholash” nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari
4. М.Б.Ухажова. Справедливая стоимость и ее использование в бухгалтерском учете: состояние и перспективы. Автореферат..
5. O‘razov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2004-y
6. www.mf.uz
7. www.lex.uz